


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI



TIL ASPEKTLARINI O'QITISH AMALIYOTI fanining
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 - Ta'lim
Ta'lim sohasi: 110000 - Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi: 60111800- Xorijiy til va adabiyot: (ingliz tili)

Termiz – 2023

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar	
TAO'A110	2023-2024	1-2	11	
Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari		
Majburiy	Ingliz/o'zbek	6/4		
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
1.				
Til aspektlarini o'qitish amaliyoti	74/60	106/90	330	

2

I. Fanning mazmuni
 Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga tilning uch muhim aspekti: grammatika, leksika va diskurs tahlilini o'rgatish, mulotoqda to'g'ri qo'llash va til aspektlari to'g'risidagi amaliy va nazariy bilimlarini takomillashtrish hamda egallangan bilim, ko'nikma, malakalarini kasbiy va ilmiy faoliyatda erkin qo'llay olish, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga xizmat qilib, o'quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etishdan iborat.
 Fanning vazifasi – chet tilini C1 darajada egallashlari uchun talabalarga xorijiy tilning grammatika, leksika va diskurs tahlili aspektlari asosida chuqur bilim berish orgali ularning erkin mulotoq ko'nikmalarini rivojlantirishdir.

II. Asosiy qism (amaliy mashg'ulotlari)
III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:
 (I-II semestrlar uchun)

I-mavzu: Fan bilan tanishish. Baxolash mezonlari.
 Til aspektlarini o'qitish amaliyoti haqida ingliz tilida umumiy ma'lumotga yega bulish. Baxolash mezonlari bo'yicha ma'lumotga yega bo'lish va amaliyotda qo'llash uchun mashqlar bajarish.

2-mavzu: So'z turkumlari. (Ot so'z turkumi)
 Ot va uning grammatik kategoriyalari: atqili va turdosh otlar; aniq va mavhum otlar, donalab sanaladigan va donalab sanalmaydigan otlar; faqat birlikka ishlatiladigan va faqat ko'plikda (to'g'ri ko'plik, noto'g'ri ko'plik) ishlatiladigan otlar; otlarda kelishik; sifati va uning darajalari; ravish turlari, olmosh turlari, son va fei kabi mavzular bo'yicha ma'lumotga ega bo'lish, o'qitish usullarini amaliyotda qo'llash va mashqlar bajarish.

3-mavzu: Olmosh va son turlari.
 Olmosh va uning turlari, jumladan kishiilik, egalik, o'zlik, gumon, bo'lishsizlik, ko'rsatish, so'roq va birgalik olmoshlari haqida bilimlarni kengaytirish; shuningdek, sarog va tartib sonlarning yasalishi; oddiy, o'ni va aralash kasrlarni tuzilishi va o'qilishi haqida ma'lumotlarga ega bo'lish.

4-mavzu: Fe'l va uning kategoriyalari. Fe'lning yasalishi va vazifasiga ko'ra turlari haqida bilimga ega bo'lish; o'ziga xos xossalarga ko'ra to'g'ri va noto'g'ri fe'llarga bo'linishi.
5-mavzu: Sifat, ravish va ularning darajalari. Sifat va ravishlarning yasalishiga ko'ra turlari; ularning gapdagi vazifasi; ulami kuchaytiruvchi boshqa so'z turkumlari; va ular boshqa so'z turkumlarini kuchaytirib yoki yumshatib kelishi; ularning darajalari va darajalarini yasashda grammatik xossalari haqida bilim va ko'nikma hosil qilish.
6-mavzu: Hozirgi zamon shakllari va ularning ishlatilishi. Hozirgi noaniq zamon, hozirgi davomli zamon, hozirgi tugallangan zamon va hozirgi tugallangan davomli zamon va ularning yasalishi haqida bilimga ega bo'lib, og'zaki va yozma nutqda ularni o'z o'rni va xatosiz qo'llashni tushuntirish usullarini o'rganish.
7-mavzu: O'tgan zamon shakllari va ularning ishlatilishi. O'tgan davom zamon, o'tgan oddiy zamon, o'tgan tugallangan zamon va o'tgan tugallangan davom zamon haqida ma'lumotlarga ega bo'lib og'zaki va yozma nutqda to'g'ri qo'llashni o'qitishni amalda o'rganish.
8-mavzu: Kichik gaplar jufitigi orgali hozirgi tugallangan va o'tgan noaniq zamonlarning farqlarini o'qitish. Turli misollar yordamida ushbu zamonlarning farqli xusssiyatlarini va ma'nosini o'qitish haqida bilim va ko'nikmalarga yega bo'lish.
9-mavzu: Kelasi zamon shakllari va ularning ishlatilishi. Kelasi oddiy zamon, kelasi davom zamon, kelasi tugallangan zamon va kelasi tugallangan davom zamon haqida ma'lumotlarga ega bo'lib, og'zaki va yozma nutqda xatosiz ishlatishni tushuntirish usullarini o'rganish va mustahkamlovchi mashqlar bajarish
10-mavzu: Modal fellar, modal birkimalar. Modal fe'llar bilan tanishish va modal so'zlar va ularning turlarini o'rganib qobilyat, taxmin, mubolag'a, ehtimollik, majburiyat, tavsiya, qonun-qoida, taklif, maslahat, ijozat, iltimos kabi ma'nolarni ifodalovchi modal so'zlar bilan tanishish, tushuntirish usullarini o'rganish. Ulardan og'zaki nutqda foydalanishga harakat qilish modal fe'llarning bir birlidan farqini misollar yordamida o'rganib, og'zaki va yozma nutqda xatosiz tushuntirish usullarini o'rganish.
11-mavzu: Ingliz tilida nisbatlar va ularning turlari. Ingliz tilidagi aniq, majhul va orttima nisbat; ularning zamonlarda yasalishi; modal fe'llar bilan yasali shakllari; aniq va majhul nisbatning gerundi va infinitivda ifodalani shi; ularning gapga ta'siri; va ularning o'zbek tiliga chog'ishitma tahlili.

12-mavzu: "there be" birkimasi va soxta "it" olmoshining gapda qo'llanishi.
"there be" birkimasining gap ishlatilishi; uning "here be" birkimasidan farqi; odadagi gap qurilishidan o'ziga xos jihati; "there being" ning "there be" dan farqi; "there be" birkimasida "be" o'rniga keluvchi boshqa fe'llar; "it" soxta egasi va to'ldiruvchisi haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lish.

13-mavzu: Fe'ning noaniq shakli: gerundiy va infinitiv.

Fe'ning noaniq shakli gerundiy va infinitiv, ular bilan ishlatiladigan fe'llar va ulardan keyin keluvchi iboralar bilan tanishish va tushunturish usullarini o'rganish.

14-mavzu: O'zlashtirma gap.

Darak, so'roq va buyruq gaplarini o'zlashtirma gapga aylantirish sirlarini o'rganib undagi zamonlar moslashuviga ahamiyat berish va tushunturish usullarini o'rganish.

15-mavzu: Payt ergash gaplar.

Payt ergash gaplarning o'tgan, hozirgi va kelasi zamonlarda zamonlar moslashuvi haqida. payt ergashitiruvchi bog'lovchilari haqida chuqur bilimga ega bo'lish, ular ishtrokida gaplash tuzish; va o'zbek tili bilan chog'ishtirma tahlil qilish.

16-mavzu: Murakkab to'ldiruvchi va soddaga aylantirish.
Murakkab to'ldiruvchi va soddaga aylantirish.

To'ldiruvchining yasashiga ko'ra turlari; darak, inkor, so'roq va buyruq gaplarini to'ldiruvchiga aylantirish usullari bilan tanishish; va o'zbek tiliga tarjima qilishni yo'llarini o'rganish.

17-mavzu: Qo'shma gaplar va ularning xossasiga ko'ra turlari.

Qo'shma gaplar tuzilishiga ko'ra turlari; qo'shma gaplar tuzish; aniqlovchi qo'shma gaplar; izohlovchi qo'shma gaplar; bog'lovchisiz qo'shma gaplar va ularni yozma va og'zaki nutqda qo'llash.

18-mavzu: Sifatdoshlarning gapda qo'llanishi.

Sifatdoshlarning gapdagi kelish o'rniga ko'ra xossalari; gapdagi tutgan o'rnini, gap leksikasiga ta'siri; bir vaqtda bajariladigan; sababni ifodalovchi; ketma-ket bajarilgan ish-harakatlarni; va sifatdoshlarning sifaday ishlatilishi.

19-mavzu: Bog'lovchilar va ularning vazifasiga ko'ra turlari

Teng bog'lovchilar, ayiruv bog'lovchilar, zidlov bog'lovchilar va bog'lovchilarning shu kabi boshqa turlari haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lish; va ularning gapdagi xususiyatlarini bir-biridan farqlash

20-mavzu: Mayllar: Buyruq mayli, shart mayli.

Buyruq mayli va uning yasashi, ifodalovchi ma'nolari; shart mayli va uning turlari; hozirgi, kelasi real zamonlar; va hozirgi, o'tgan, kelasi va aralash noreal gaplar shakllariga oid ma'lumotlar bilan tanishish va tushunturish usullarini o'rganadi va mashqlarda mustahkamlash.

21-mavzu: Predloglar va ularning gapda qo'llanishi.

Predloglar va ularning ma'nosi; gapda qo'llanishi; payt va o'rin hollarini predloglar yordamida yasash; predlogli birkimalar haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lish.

22-mavzu: Artikl.

Artiklning turi xil otlar bilan ishlatish usullarini o'qitishni o'rganish. Noaniq va aniq artikl haqida ingliz tilida umumiy ma'lumotga ega bo'lish. Turdosh otlar bilan noaniq artiklning ishlatilishi, turdosh otlar bilan aniq artiklning ishlatilishi, turdosh otlar oldidan artiklning ishlatilmasligi, geografik joy nomlari oldidan artiklning ishlatilishiga e'tibor qarab buning misollar keltirish, o'qitish usullarini amalda ko'rib chiqish va mashqlar bajarish.

22-mavzu: So'z yasashi, so'zlarning birligini ularning xususiyatlari.

So'z yasashi haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lib, ularning yasash usullarini ko'rib chiqish, o'zak, old qo'shimcha va yon qo'shimchalarga bo'lib o'rganish; shu o'zak va qo'shimchalarni bir-biridan farqlanuvchi leksik jihatlari; va tushunturish usullarini o'rganish.

23-mavzu: Gap bo'laklarining tartibi.

Gaplarning odadagi qurilishi; inversiya. Ma'lum bir gap bo'laklarga urg'u berish. Darak, so'roq va inkor gaplarning to'g'ri va noto'g'ri tartibi. Holning gapdagi o'rnini haqida batafsil bilimga ega bo'lish. "so, such, neither, nor, as, than" lar bilan inversiya yasash.

24-mavzu: Omonimlar va ko'p ma'noli so'zlar.

Omonimlar va ularning turlari; omograf va omofonlar haqida bilim va ko'nikmalarni egallash va amaliyotda qo'llash; polisemiya va uning omonimdan farqi.

25-mavzu: Turg'un birkimalar va ularning turlari.

Iboralar, metafora va simillarning o'ziga xos yasash mezonlari haqida umumiy ma'lumotlarga ega bo'lish; ularning bir-biridan farqlanish xususiyatlari; va tildagi diskursda tutgan o'rnini.

26-mavzu: Juft so'zlar.

Juft so'zlarning grammatik xossalari; ularning yozma va og'zaki nutqda tutgan o'rnini; mahnda gapga ta'siri haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lish.

27-mavzu: Sinonim va antonim soʻzlar.
Ingliz tilida sinonimlar, antonimlar toʻgʻrisida umumiy maʼlumotga ega boʻlish, tushuntirish usullarini oʻrganish va sinonimlar va antonimlarning ahamiyatini mashqlarda koʻrib chiqish.

28-mavzu: Muammoli va oson chalkashiriladigan soʻzlar.
Bir xil va maʼnoga va oʻxshash yoziladigan soʻzlar bilan tanishish; ular oʻrtasidagi maʼno farqlarini izchil tushunish; oʻziga xos birkimlar bilan kelishini oʻrganish.

29-mavzu: Konnotatsiya va konnotativ soʻzlar.
Konnotatsiya haqida tushunchaga ega boʻlish; konnotativ soʻzlar bilan tanishib, ularning hozirgi kunga mos bogʻliqligini anglash; konnotativ soʻzlarning oʻzbek tili bilan oʻzaro madaniy farqini chogʻishtirish.

30-mavzu: Rasmiy, neytral va norasmiy til.
Rasmiy, neytral va norasmiy tillarning bir-biridan farqi; yozma va oʻgʻzaki nutqda ularni tutgan oʻrni va ularni toʻgʻri qoʻllash; va oʻziga xos soʻzlarni tanlashni oʻrganish.

31-mavzu: Yangiliklarda foydalaniladigan oʻziga xos soʻzlar. Yangilik sarlavhalarda ishlatiladigan til.
Yangilik shaharida ishlatiladigan oʻziga xos leksik boʻyliklarni kengaytirish; oʻziga xos xossalari bilan tanishish; odatdagi grammatikada yangiliklardagi grammatikaning farqi.

32-mavzu: Abreviaturalar, akronimlar va inisiallar.
Abreviaturalar haqida; akronimlar haqida; inisiallar haqida batafsil maʼlumotga ega boʻlish, ularning oʻziga xos xususiyatlari bilan tanishish; ularni bir-biridan farqini anglash.

33-mavzu: Qisqartmalar. Soʻzlarni qisqartirib ishlatish.
Qisqartmalar haqida bilimlarga ega boʻlish; ularni hosil qilishni oʻziga xos usullari-oid, yon va oʻrta qisqartmalar; va shu qisqartmalarni oʻqish xususiyatlarini oʻrganish.

34-mavzu: Mulogot. Oʻz fikr va gʻoyalarni yetkazish.
Mulogotga oid; oʻz fikr va gʻoyalarni bayon etishga oid leksik birliklar, birkimlar orqali soʻz boyligini oshirish.

35-mavzu: Eʼlonlarda foydalaniladigan oʻziga xos soʻzlar. Eʼlonlarda ishlatiladigan til.
Eʼlonlarda ishlatiladigan oʻziga xos leksik boʻyliklarni kengaytirish; oʻziga xos xossalari bilan tanishish; odatdagi grammatikadan farqi; shu bilan bir qatorda eʼlonlarga oid soʻz boʻyliklarni boyish.

36-mavzu: Ingliz tilida gaplashuvchi boshqa mamlakatlarning oʻziga xosligi.
Ingliz tilida birinchi til sifatida gaplashuvchi mamlakatlardagi ingliz tilining leksikasida, grammatikasida, oʻgʻzaki nutqda va yozmada Qoʻshma qirolikdagi ingliz tilidan farqlari haqida bilimlarga ega boʻlish.

37-mavzu: Taqiid soʻzlar. Tovushga va harakatga taqiid soʻzlar.
Taqiid soʻzlar haqida bilimlarga ega boʻlish; ularni tovush va harakatga oid taqiid soʻzlarga tasniflab, oʻz bilim koʻnikmalarini oshirish.

38-mavzu: Nutq belgilari. Nutq belgilarining tilidagi oʻrni
Diskurs markerlarning tilidagi oʻziga xos ahamiyati; ularni ogʻzaki nutqda qoʻllash amaliyotini tadbiiq etish; va ularning klassifikatsiyasi haqida umumiy maʼlumotlarga ega boʻlish.

39-mavzu: Ogʻzaki grammatika.
Ogʻzaki grammatikaning oʻziga xos xususiyatlari; uning yozma grammatikadan farqini izchil oʻrganish; va ularni ogʻzaki nutqda qoʻllash.

40-mavzu: Feʼli va otdi birkimlar.
Oʻzidan keyin maxsus predloglarni oladigan feʼllar va otlar bilan tanishish; ular orqali soʻz boyligini boyitish; va oʻzbek tili bilan farqlarini anglash.

41-mavzu: Feʼl va otlarning predloglar bilan birga kelib koʻchma maʼno ifodalashi.
Frazali feʼllar va otlarning predloglar bilan birga kelib, boshqa maʼno ifodalash xossalarni oʻrganish; oʻz va koʻchma maʼnoli frazali feʼllar; oʻtmili va oʻtimisiz frazali feʼllar; turgʻun va erkin frazali feʼllar haqida bilimlarga ega boʻlish.

42-mavzu: "Sabab, maqsad, natija va taʼsir" ga oid soʻz birkimlari.
Sababni ifodalovchi birkimlar, maqsadni ifodalovchi birkimlar, natijalarni ifodalovchi birkimlar ishtirokida ogʻzaki gaplar tuzish; va ularni yozma inshoda qoʻllashni mashq qilish.

43-mavzu: Taqqoslash va zidlashni ifodalovchi leksik birliklar va soʻz birkimlari.
Taqqoslashni ifodalovchi birkimlar; zidlashni ifodalovchi ilgʻor birkimlar bilan tanishish; ularning gapda qoʻllagan holda bilimlarni kengaytirish.

44-mavzu: Fikrga argument berish.
Odalarning fikriga qarshi bahs-munozarali fikrlarni ifodalovchi ilgʻor soʻzlar va soʻz birkimlar bilan lugʻat boyligini oshirish; ogʻzaki va yozma nutqda ularni qoʻllash orqali mashqlar bajarish.

45-mavzu: Bogʻlovchi qurilmalar va ularning klassifikatsiyasi.

Bog'lovchi qurilmalarni gapdagi o'rni haqida muflasal ma'lumotga ega bo'lish; ularning turlari haqida chuqurroq izlanish; va ularni og'zaki va yozma nutqda tutgan o'rni haqida fikr yuritib, amaliyotda qo'llash.

46-mavzu: Internetdan foydalanish. Taqdimot tanishtirish.

Internetdan foydalanish jarayonida ishlatiladigan so'z bo'yliklari bilan o'z bilim va ko'nikmalarni amaliy boyitish; taqdimotda ishlatiladigan so'z birkimalaridan foydalangan holarda bilimni kengaytirish.

47-mavzu: Kiritmalar.

Kiritmalarining grammatik xususiyatlarini bilish; bog'lovchilarga taqqoslagan holarda xossalarni o'rganish; hol gap bo'lagi bilan o'xshash va farqi jihatarini o'rganish; ularni gapda qo'llay bilish.

48-mavzu: Qonun, jinoyat va jazo.

Huquqiy terminlar; qonunga oid so'z birkimalar; jinoyat turlari; jazoga oid lig'or so'z bo'yliklar bilan lug'at bo'yligini boyitish; ular yuzasidan og'zaki muhokama qilish orqali o'rganish.

49-mavzu: Xulq-atvor, harakatlari orqali so'zlashuv.

Tana a'zolarining bajaradigan harakatlarga oid so'zlar bilan tanishish; ularni amaliy mashqlar orqali o'rganish; ular o'rtasidagi nozik farqlarni anglash.

50-mavzu: Tez va sekin harakatlanish.

Tez va sekin harakatlanishga oid so'zlar, so'z birkimalarini so'z bo'yligini oshirishda foydalanish; ularni og'zaki va yozma nutqda to'g'ri foydalanishni o'rganish.

51-mavzu: Qiyinchilik va og'ir tanlov.

Qiyinchilik va og'ir tanlovga oid so'zlar bilan tanishish, ularni izchil o'rganish; va gapda to'g'ri qo'llay bilishni o'rganish.

52-mavzu: Fakt, fikr va xohishni ifodalash.

Fakti og'zaki tarzda ifodalovchi birkimalar; shaxsiy fikrni ifodalovchi birkimalar; va xohishni ifodalovchi birkimalar yodlab, og'zaki va yozma nutqda amaliy qo'llash.

53-mavzu: Ijorat, rozilik, ta'qiq va ma'qullamaslikni ifodalash.

Ijoratni ifodalovchi birkimalar; rozilikni ifodalovchi birkimalar; ta'qiqni ifodalovchi birkimalar; va ma'qullashni ifodalovchi birkimalar bilan so'z bo'yligini oshirish; va ularni amaliyotda qo'llash.

54-mavzu: Shikoyat, e'tiroz va tanqidni ifodalash.

Shikoyatni ifodalovchi birkimalar; e'tiroz ifodalovchi birkimalar; tanqidni ifodalovchi birkimalar bilan so'z bo'yligini oshirish; va ularni amaliyotda qo'llash.

55-mavzu: Kechirim so'lash, afsuslanish va yargashni ifodalash.
Kechirim so'lashni ifodalovchi birkimalar; afsuslanish ifodalovchi birkimalar; yargashni ifodalovchi birkimalar yodlab, og'zaki va yozma nutqda amaliy qo'llash.

56-mavzu: Xushomad va maqtovmi ifodalash.

Xushomadni ifodalovchi birkimalar; maqtovmi ifodalovchi birkimalar yodlab, og'zaki va yozma nutqda amaliy qo'llash.

57-mavzu: Va'da berish va garov o'ynashni ifodalovchi birkimalar.

Va'da berishni ifodalovchi birkimalar; garov o'ynashni ifodalovchi birkimalar yodlab, og'zaki va yozma nutqda amaliy qo'llash.

58-mavzu: O'tmishni yodga olish va afsuslanishni ifodalovchi birkimalar.

O'tmishni yodga olishni, xotirlashni va afsuslanishni ifodalovchi birkimalar bilan so'z bo'yligini oshirish; va ularni amaliyotda qo'llash.

59-mavzu: Rozilikni, qo'shimaslikni va murosani ifodalovchi birkimalar.

Rozilikni ifodalovchi birkimalar; qo'shimaslikni ifodalovchi birkimalar; murosani ifodalovchi birkimalar bilan so'z bo'yligini oshirish; va ularni amaliyotda qo'llash.

60-mavzu: Ilmiy va rasmiy yozish.

Nejtral uslubdagi so'zlarining juda norasmiylariga; juda rasmiylariga o'zgartirib, ilmiy hamda juda rasmiy yozma nutqni so'z bo'yligini kengaytirish va amaliy insholar bilan o'rganish.

61-mavzu: Tovush, nutq, suhbat uslub. Nutq va artikulyatsiya muammolarini ifodalovchi lig'or so'zlar va so'z birkimalar.

Tovushni ifodalovchi so'zlar; nutqga oid so'zlar bilan tanishish, suhbat uslubida haqida tushuncha hosil qilish. Nutq va artikulyatsiya muammolarini ifodalovchi lig'or so'zlar va so'z birkimalarini chog'ishitma tahlil orqali o'rganish.

62-mavzu: Da'vo qilish va tan olmaslikni ifodalash.

Da'vo qilishni ifodalovchi birkimalar; tan olmaslik va rad etishni ifodalovchi lig'or so'zlar va birkimalarini og'zaki nutqda qo'llash orqali o'zlashtirish

63-mavzu: Undov so'zlar.

Undov so'zlar va ularning tildagi ahamiyatini anglash; ularning turlarini va grammatika xossalarni o'rganish.

64-mavzu: Ega va kesim moslashuvi.

Ega va kesim moslashuvda chigal jihatarini chuqur o'rganish.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar davomida talabalar yakka holda, juftlikda va kichik guruhlarda ishlaydilar. O'qitish metodikasi amaliy vazifalar, dolzarb maqolalar muhokamasi, turli janrdagi matnlarni PIRLS – dasturi orqali ya'ni syujening mantiqiy tuzilishiga rioya qilish muhimdir. Matnda oddiy va murakkab gaplarning bir xil ishlatilishini ta'minlash, agar dialog ustunlik qilsa, ma'lumoni birilashitirib, murakkab gaplarni qo'shish kerak bo'ladi. Axborot matnda esa matnning strukturasi va ma'lumotning mantiqiy ketma-ketligini sarlavhalar, jadvallar, grafiklar kabi visual elementlar bilan bog'liqligini kuzatish shartdir. Internet matnlari bilan ishlash, o'quvchilar matndan axborot topa olish, matn shakli va tilining ba'zi xususiyatlaridan foydalanib, matnga asosan o'z xulosalarini chiqarish, tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalarini baholovchi testlar va mustaqil o'qishga yo'naltirilishi lozim. Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy multimedia vositalari bilan jhozlangan auditoriyada interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

I semestr uchun

1. Simple, compound and complex sentences. Be to + infinitive, be about to infinitive;
2. Other ways of talking about the future. Need(n't), don't need to and don't have to;
3. Linking verbs. Interrogative sentence;
4. Subjunctive form of the verb. The use of "another", "other" and "the other."
5. The usage of determiners in sentences. Grammatical function of "some", "any", "much", "many", "a few", "a little", "a lot of" and "a lot"
6. Grammatical usage of "every", "each", "whole", "half" and "one/ones". "too", "so", "enough" and "plenty"
7. Grammatical usage of pre-determiners. Noun phrases
8. Verb phrases. Proverbs, sayings and quotations
9. Adjective phrases. Intensifying adjectives
10. Intensifying and softening adverbs. Job, career, work and business
11. Direct and indirect objects. Liking and disliking
12. Difference between metaphor, metonymy and irony. Spending, time, money
13. Epithet and oxymoron Hobbies, sport and games
14. Antonomasia, euphemism and hyperbole. Global problems.
15. Language and gender Speed and movement
16. Agreement between subject and verb 1
17. Agreement between subject and verb 2

II semestr uchun

18. Connecting ideas in a sentence and between sentences
19. Prepositions after verbs
20. Prepositions after nouns
21. **If ... not and unless; if and whether**
22. If I were you...; imagine if he were to win
23. Purposes and results: in order to; so as to, etc.
24. Giving reasons: as, because, etc.; for and with
25. Adverbial clauses of time
26. Gradable and non-gradable adjectives
27. Participle adjectives and compound adjectives
28. Adjectives + to-infinitive, -ing, that-clause, wh-clause
29. Comparative clauses and phrases
30. Position of adverbs

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Talaba bilishi kerak:
Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

<p>• Til aspektlari to'g'risidagi amaliy va nazariy bilimlarini takomillashtirish hamda ularni kashiy va ilmiy faoliyatda erkin qo'llay olishni bilishni va ularndan foydalana olishi; (ko'nikma)</p> <p>• O'zining til ko'nikmalarini rivojlantirish borasidagi faoliyatini baholay olish va refleksiylarini qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka)</p> <p>• So'z turkumlari va ularning to'liq mazmunini tushunib yetish, ulardan og'zaki va yozma nutqda samarali foydalana olish;</p>	<p>4</p> <p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • interfaol keys-stadlar; • blitz so'rov; • ma'niqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar; • guruhlarda ishlash; • taqdimodlar qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar; • kommunikativ metodlar; • kognitiv metodlar;
<p>5</p> <p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks etira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish.</p>	<p>6</p> <p>VIII. Asosiy adabiyotlar</p> <p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. R. Murphy. English Grammar in Use (fifth edition). Cambridge University Press 2019. – 394 s. 2. Michael McCarthy, Felicity O'Dell. English Vocabulary in Use Advanced (third edition). Cambridge University Press 2017. – 303 s. 3. Michael McCarthy, Felicity O'Dell. English Collocations in Use Advanced (second edition). Cambridge University Press 2017. – 194 s. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. M. Hewings. Advanced Grammar in Use (third edition). Cambridge University Press 2013. – 306 s. 2. Michael McCarthy, Felicity O'Dell. English Vocabulary in Use Upper-

<p>intermediate (fourth edition). Cambridge University Press 2017. – 280 s.</p> <ol style="list-style-type: none"> 3. Michael McCarthy, Felicity O'Dell. English Collocations in Use (second edition). Cambridge University Press 2017. – 194 s. 4. M. Foley, D. Hall. Advanced Learners' Grammar. Longman 2008. – 384 s. 	<p>Axborot manbalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.teachingenglish.org.uk 2. www.onestopenglish.com 3. www.businessenglishonline.net 4. www.elgazette.com 5. www.tesol.org 6. www.tefl.com, 7. www.teachertrainingvideos.com 8. http://www.learnenglish.org.uk/ 9. www.educationuk.org
<p>7</p> <p>Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023-yil "30"-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan.</p>	<p>8</p> <p>Fan/modul uchun mas'ullar va dastur mualliflari:</p> <p>M.Madiyeva - TISU "Xorijiy tillarlar" kafedrasi, o'qituvchi O'.Abdinazarov - TISU "Xorijiy tillarlar" kafedrasi, katta o'qituvchi</p>
<p>9</p> <p>Taqrizchilar:</p> <p>O.Uralova— Termiz davlat Pedagogika instituti, Xorijiy til va adabiyoti fakulteti dekani, Filologiya fanlari falsafa doktori (PhD) Z.Narmpuratov – Termiz davlat universiteti, Xorijiy til va adabiyoti kafedrasi mudiri, Filologiya fanlari falsafa doktori (PhD)</p>	